Namangan “Akademik va yoshlar” III an’anaviy Kongressiga mezbonlik qilmoqda

64-xalqaro gullar festivali doirasida Namangan davlat texnika universiteti va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan "Akademik va yoshlar" Kongressida O‘zbekiston, Qirg‘iziston hamda Tojikiston Fanlar akademiyalarining 20 nafardan ortiq akademiklari, taniqli fan arboblari, respublikamizdagi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalarining yetakchi olimlari ishtirok etmoqda.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati a’zolari ham Kongress mehmonlari safidan joy oldi.

Kongressning ochilish marosimida Namangan viloyati hokimi Shavkatjon Abdurazzoqovning tabrigi o‘qib eshittirildi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov videoaloqa orqali tadbir ishtirokchilarini qutladi.

Kongress ilk kunida sessiyalar davomida akademiklarning turli ilmiy mavzulardagi ma’ruzalari tinglandi. Ularda zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Kunning ikkinchi qismida Namangan davlat texnika universiteti, Namangan davlat pedagogika instituti hamda Namangan shahridagi Prezident maktabida akademiklarning talabalar va o‘quvchilar bilan ochiq muloqotlari o‘tkazildi. Ushbu uchrashuvlar davomida yoshlar akademiklardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga bevosita javoblar olish va bilimlarini yanada boyitish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Kongress ishi davom etmoqda.